IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

DAVLAT ORGANLARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA KOMPLAYENS NAZORAT TIZIMINI JORIY ETISH HAMDA UNING TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Baxodirova Gulnoza Oybek qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti 70420123 – Korrupsiyaga qarshi kurash va komplayens nazorat mutaxassisligi magistranti
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20351657

Annotatsiya: Mazkur maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishdagi mavjud yondashuvlar hamda korrupsion holatlarni oldini olishdagi muhim institutlardan biri bo‘lgan komplayens kontrolning kelib chiqishi va uning turlari muhokama qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida komplayens nazorat institutining joriy etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar keltirib o‘tilishi bilan bir qatorda O‘zbekistonning corruption perception indexdagi o‘rni ham tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Komplayens nazorat, xalqaro standartlar, yondashuv, Trancparency international, corrupsion pereception index.

Bugungi globallashuv sharoitida korrupsiya davlatning – boshqaruv samaradorligiga, iqtisodiy taraqqiyotiga va jamiyatning davlat hokimiyatiga bo‘lgan ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha pezidentimiz tomonidan qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining 2025-yil 5-mart kuni yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev korrupsiyani bartaraf etishda asosiy e’tibor jazodan ko‘ra uning ildiz sabablarini yo‘qotishga qaratilishi lozimligini takidlaganlar. Shu maqsadda davlat boshqaruvida raqamlashtirishni kengaytirish, ochiqlikni ta’minlash hamda komplayens nazorat tizimini kuchaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Shuning bilan bir qatorda, Prezident: korrupsiyaga “Jamiyat tanasidagi sarotan” sifatida qarash kerak deya takidlaganlar[1].

Zero korrupsiyaviy saratonni butunlay yo‘q qila olmasakda, unga qarshi kurashish uchun samarali mexanizmlardan foydalangan holda xavflilik darajasini maksimal darajada kamaytirish imkoniyatimiz mavjud. Xalqaro amaliyotda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan zamonaviy institutsional mexanizmlarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Samarali mexanizmlardan biri komplayens nazorat (compliance control) tizimi hisoblanadi. Mazkur tizim bugungi kunda nafaqat davlat organlari balki xo‘jalik boshqaruvi organlar faoliyatida korrupsiyaga qarshi preventiv vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda.

Shuning bilan bir qatorda bugungi kunda O‘zbekistonda ham komplayens nazorat tizimini joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2026-yil 12-dekabrdagi Murojaatnomasida korrupsiya davlat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida baholab, unga qarshi kurashishda tizimli va keskin choralar ko‘rilishi ta’kidlandi. Jumladan, davlat organlarida komplayens nazoratni kuchaytirish, mansabdor shaxslarning javobgarligini oshirish va korrupsiyaviy holatlarga nisbatan murosasiz yondashuv joriy etilishi belgilandi. Shu bilan birga, Prezident: “Korrupsiyaga yo‘l qo‘yish – islohotlarimizga xiyonatdir”[2], deya alohida urg‘u berganlar.

Mazkur holat mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar ma’lum natijalarni berayotgan bo‘lsada, ayrim tizimli muammolar hanuz saqlanib

[1] https://president.uz/oz/lists/view/7924
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 12-dekabrdagi Oliy Majlisi va Xalqiga Murojaatnomasi https://president.uz/oz/lists/view/8834

qolayotganligini ko‘rsatadi. Xususan, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni to‘liq ta’minlash, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, korrupsion holatlar uchun javobgarlikning muqarrarligini kuchaytirish hamda jamoatchilik nazoratining samaradorligini oshirish zaruratiga haligacha ehtiyoj sezilmoqda.

“Compliance” atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib, “muvofiqlik”, “rioya qilish”, “belgilangan talab va qoidalarga amal qilish” ma’nolarini anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda komplayens nazorat tashkilot faoliyatining qonunchilik, ichki me’yoriy hujjatlar, etnik standartlar va xalqaro standartlar asosida amalga oshirilishini nazorat qiluvchi ichki boshqaruv mexanizm sifatida talqin etiladi[3].

Mazkur tizim dastlab, XX asrning ikkinchi yarmida AQSh korporativ moliyaviy nazorat tizimining bir qismi sifatida shakillangan. Xususan, 1977-yilda AQShda qabul qilingan Foreign Corrupt Practices Act (FCPA) xalqaro korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimining rivojlanishida muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu qonun xorijiy mansabdor shaxslarga pora berishni taqiqlash bilan bir qatorda kompaniyalarda ichki nazorat va moliyaviy monitoring tizimini joriy qilish majburiyatini ham belgilab berdi[4].

Komplayens nazorat tizimining nazariy asosi dastlab 1977-yilda qabul qilinib, keyinchalik Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyalari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi asosida yanada rivojlantirildi.

Komplayens nazorat tzizimini yuridik jihatdan tartibga solishga qaratilgan Xalqaro standartlashtirish tashkiloti tomonidan qator xalqaro standartlar ishlab chiqilgan. Jumladan, ISO 37001 “Anti – Bribery Management Systems”[5], ISO 19600 “Compliance management systems – Guidelines”[6], ISO 37301 “Compliance management systems – Requirements with guidance for use”[7] va tashkilotlarning boshqa turdagi tavsiyalaridan iborat. Ushbu standartlar tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini joriy etishning xalqaro modelini belgilab berdi. Mazkur standartlarga ko‘ra, tashkilotlarda korrupsion xavflarni aniqlash, baholash va oldini olishga qaratilgan maxsus nazorat tizimlari shakllantirilishi lozim

Ko‘plab adabiyotlarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan to‘rtta asosiy yondashuv ajratib ko‘rsatiladi. Bular:

– qadriyatlarga asoslangan yondashuvlar (value-based approaches);
– kamplayensga asoslangan yondashuvlar (compliance-based approaches);
– risklarni baholashga asoslangan yondashuvlar (risk management approach);
– xabardorlik hamda ishtiroklikka asoslangan yondashuvlar (awareness and participation-based approaches).

Komplayensga asoslangan yondashuvni alohida tahlil qilar ekanmiz korrupsiyaning oldini olishda komplayensga asoslangan yondashuv qonunlar, ichki qoidalar va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv extrinsic motivation (xodimlarni korrupsiyadan tiyilishiga undash uchun ish haqi bonus va boshqa moddiy rag‘batlarni qo‘llashga asoslangan), penalties and puneshments (korrupsion harakatlarni kamaytirish maqsadida qat’iy jazo, sanksiya va huquqiy javobgarlik choralarini qo‘llashga asoslangan) usullar yordamida amalga oshiriladi[8].

Tahlillarga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashishda alohida bir usulning o‘zi yetarli samarani bermaydi. Shu sababli korrupsiyaning oldini olishda preventiv, institutsional va nazorat

[3] Niyozova S.S Korrupsiyaga qarshi kurashishda va komplayens nazorat tizimi: darslik – Toshkent, 2025.:
[4] Foreign Corrupt Practices Act 1977 // URL: https://www.govinfo.gov.
[5] International Organization for Standardization // URL: https://www.iso.org/standard/37001
[6] International Organization for Standardization URL: https://www.iso.org/standard/62342.html
[7] International Organization for Standardization URL: https://www.iso.org/standard/75080.html
[8] Bradly Sauve, Jessica Woodley, Natalie J.Jones, Seena Akhtari. Method of Preventing Corruption: A Review and Analysis of Select Approaches // Public safety Canada. 2023. Report URL: https://www.publicsafety.gc.ca/cnt/rsrcs/pblctns/2023-r010/index-en.aspx

mexanizmlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishtirgan kompleks yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayniqsa, tashkilotlarda ichki komplayens nazoratini kuchaytirish, risklarni oldindan aniqlash, muntazam trening dasturlarini tashkil etish hamda rahbariyat tomonidan shaxsiy namuna tamoyilini amalda ta’minlash korrupsiyaning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Komplayens nazorat tizimining asosiy maqsadi tashkilot faoliyatida korrupsion holatlarning oldini olish, huquqiy xavflarni kamaytirish hamda boshqaruv shaffofligini ta’minlashdan iborat. Ushbu tizimning muhim jihati shundaki, u sodir etilgan huquqbuzarlikni jazolashdan ko‘ra, uni oldindan aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan preventiv mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Komplayens nazorat tizimini faoliyatida joriy etgan davlatlar xususan, AQSh, Angliya, Sloveniya, Xitoy tajribasi hamda xalqaro yirik kompaniyalar amaliyoti asosida korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat uchta modelga ajratilishi qayd etilgan bular[9]:

– ixtisoslashtirilgan komplayens model. Uning asosiy vazifasi tashkilot faoliyatida asosan xorijiy davlatlar hamda xalqaro doiradagi qonun talabi asosida tashkil etilib, tashkilotning xalqaro darajada nufuzini oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

– moslashgan komplayens model. Modelning asosiy vazifasi tashkilotning ichki tizimini yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashishdagi mavjud xavf xatarlarni aniqlash va ularga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

– aralash komplayens model asosan milliy va xalqaro darajadagi norma va ichki qoidalarning o‘zaro uyg‘unlashuviga asoslanganligi nazarda tutiladi.

O‘zbekistonda joriy etilgan korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimi aralash model asosida shakillangan bo‘lib, unda ham ixtisoslashtirilgan ichki nazorat bo‘linmalari faoliyati, ham komplayens funksiyalarning boshqa tarkibiy tuzilmalar bilan integratsiyalashgan holda amalg oshirilishi kuzatiladi.

Mamlakatimizda komplayens nazorat tizimi dastlab, 2019 yil 27-may kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan ustav jamg‘armasida davlat ulushi bo‘lgan tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini kuchaytirish, xususan korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini joriy etish va uning samaradorligini monitoring qilish, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro doiradagi ISO 37001 standartlariga asosan sertifikatlashtirish tartibi o‘rnatish belgilangan[10].

Keyinchalik, 2020-yil 29-iyunda Prezident tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keying o‘rinlarda Agentlik) Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi hamda boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda xalqaro mablag‘lar hisobiga 2020-2021-yillarda barcha davlat xo‘jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi komplayens nazoratni bosqichma boshqich tadbiq etishni ta’minlash Agentlikning zimmasiga yuklatilgan.

Shuningdek, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar bilan bir qatorda banklarda ham korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat hamda korrupsiyaga qarshi kurashning boshqa xalqaro vositalarini joriy

[9] Niyozova S.S, Hakimov B.K. Korrupsiyaga qarshi kurashishda komplatens nazorat tizimi: darslik – Toshkent, 2025.:

[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5729-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/-4355387

etish va samarali faoliyat ko‘rsatishini tashkillashtirish, zamonaviy usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida korrupsiyaga qarshi monitoring olib borish, shuningdek, mazkur sohadagi faoliyat bo‘yicha reyting tuzish Agentlikning asosiy vazifasi sifatida belgilangan[11].

Korrupsiyaga qarshi kurashishda komplayens nazorat tizimi amalda tadbiq etilishi nafaqat davlat organlari balki xo‘jalik boshqaruv organlar faoliyatida ham shaffoflikni ta’minlash, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish hamda ichki nazorat samaradorlikni oshirishga imkoniyat yaratadi.

Umuman olganda korrupsiyasiz davlatning o‘zi yo‘q nafaqat rivojlanayotgan davlatlar balki rivojlangan davlatlar hamda korrupsiyadan holi bo‘lgan davlatlarda ham korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchrab turadi. Har yili davlatlarning korrupsiyaviy holatlar mavjudligini tahlil qilib boradigan xalqaro doirada bir nechta tashkilotlar mavjud. Bulardan, Transparency International korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi eng nufuzli xalqaro nodavlat tashkilotlardan biri bo‘lib 1993 yilda tashkil etilgan. Tashkilotning asosiy maqsadi dunyo bo‘ylab korrupsiyani kamaytirish, davlat boshqaruvida shaffoflikni va hisobdorlikni kuchaytirish hamda halollik tamoyillarini targ‘ib qilishdan iborat. Transparency International korrupsiyani “ishonib topshirilgan vakolatdan shaxsiy manfaatlar yo‘lida foydalanish” deb ta’riflaydi.

Tashkilot har yili 180 dan ortiq mamlakat va hududlarni, davlat sektori darajasidagi korrupsiyaviy holatlarini ekspertlar va biznes vakillari fikri asosida yuqori darajada korrupsiyalashgan (highly corrupt) 0 shkalasidan, juda toza (very clean) 100 shkalagacha baholaydi[12]. Ushbu tashkilot tomonidan 2025-yil uchun taqdim etilgan corruption perception index hisobotiga ko‘ra, 89 ball bilan Daniya birinchi o‘rin, 88 bal bilan Finlandiya ikkinchi o‘rin, 84 bal bilan Singapur uchinchi o‘rinni qayd etgan. 2024-yilgi indeks bilan solishtirganda, Daniya bir pog‘ona pastlagan bo‘lsa qolgan ikkita davlat o‘zgarishsiz qolgan. Ko‘rib turganingizdek, Daniya 89 shkala bilan birinchi pog‘onada turgan bo‘lishiga qaramasdan korrusiyadan holi mamlakat emas[13].

O‘zbekiston Respublikasi korrupsiya qarshi tizimi va uning xalqaro standartlarga mosligi Transparency International tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro metodologiyasiga asoslangan “Milliy halollik tizimini baholash”dagi o‘n besh ustun (davlat sektori, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar, audit muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, biznes, prokuratura, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud tizimi, markaziy saylov komissiyasi, Ombudsman, siyosiy partiyalar, davlat korxonalari) bo‘yicha ya’ni qonunchilik bazasi va amaldagi institutlarning real faoliyati baholanadi[14].

Ushbu indeksning 2025-yil natijasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi 31 shkala bilan 124-o‘rindan joy olgan. Indeks natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida Qozog‘istondan keyingi, Tojikiston Turkmaniston, Qizg‘iziston davlatlaridan oldingi pog‘onadan o‘rin olgan. Tashkilot 2012-yildan 100 ballik baholash tizimiga o‘tganidan 2024-yilga qadar O‘zbekiston yiliga 1, 2 shkala yuqorilab kelgan. 2024-2025 yillarda esa mamlakatimiz ketma ket bir pog‘ona pastlagan[15].

---

[11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6013-sonli Farmoni https://lex.uz/uz/docs/-6000285

[12] Corruption perceptions index // URL: https://www.transparency.org/en/what-is-corruption

[13] Corruption perceptions index 2025 // URL: https://www.transparency.org/en/cpi/2025

[14] https://www.undp.org/uz/uzbekistan/news/ozbekistonning-milliy-halollik-tizimini-baholash-nisa-boyicha-hisobot-taqdim-etildi

[15] Corruption perceptions index 2025 https://www.transparency.org/en/countries/uzbekistan

Mazkur indeksda ketma-ket pasayish holati korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda nafaqat normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, balki qonunlarning amaliy ijrosini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro standartlarga mos komplayens nazorat tizimlarini joriy etish, davlat xaridlarini raqamlashtirish, ochiq ma'lumotlar bazasini kengaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini faollashtirish korrupsiyani kamaytirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda komplayens nazorat tizimini takomillashtirish zarurati inobatga olgan holda dastlab, barcha davlat organlari uchun yagona milliy komplayens standartini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, amaliyotda turli tashkilotlarda komplayens tizimi bir xil darajada ishlamayapti. Shuningdek, komplayens bo'linmalarining institutsional mustaqilligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim hollarda mazkur bo'linmaning rahbariyatiga to'liq bo'ysunishi ularning samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida elektron monitoring tizimlarini joriy qilish ham dolzarb masalalardan biridir. Xususan, sun'iy intellekt asosida davlat xaridlari, tenderlar va moliyaviy operatsiyalarda korrupsion xavflarni avtomatik aniqlash mexanizmlarini joriy etish komplayens samaradorligini sezilarli oshiradi. Shu bilan birga, korrupsion huquqbuzarlik haqida xabar beruvchi shaxslarni himoya qilish bo'yicha alohida qonun qabul qilinishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi

Xulosa qilib aytganda, komplayens nazorat tizimi korrupsiyaga qarshi kurashishda zamonaviy va samarali preventiv mexanizm hisoblanadi. Mazkur tizimning davlat organlari faoliyatiga joriy etilishi boshqaruv shaffofligini ta'minlash, korrupsion xavflarni kamaytirish va davlat organlariga nisbatan jamiyat ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli O'zbekistonda komplayens nazorat tizimi xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish, uning institutsional mustaqilligini kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishi bo'lib o'tdi. 2025 yil 5-mart.: [Elektron manba] https://president.uz/oz/lists/view/7924
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisi va Xalqiga Murojaatnomasi 2025 yil.: [Elektron manba] https://president.uz/oz/lists/view/8834
3. O'zbekistonning "Milliy halollik tizimini baholash" (NISA) bo'yicha hisobot taqdim etildi. 2025.: [Elektron manba] https://www.undp.org/uz/uzbekistan/news/ozbekistonning-milliy-halollik-tizimini-baholash-nisa-boyicha-hisobot-taqdim-etildi.
4. Niyozova S.S Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat tizimi: darslik – Toshkent, 2025.:
5. Niyozova S.S, Hakimov B.K Korrupsiyaga qarshi kurashishda komplayens nazorat tizimi: darslik – Toshkent, 2025.:
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5729-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/-4355387
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6013-sonli Farmoni https://lex.uz/uz/docs/-6000285
8. Bradly Sauve, Jessica Woodley, Natalie J.Jones, Seena Akhtari. Method of Preventing Corruption: A Review and Analysis of Select Approaches // Public safety Canada. 2023. Report URL: https://www.publicsafety.gc.ca/cnt/rsrcs/pblctns/2023-r010/index-en.aspx
9. Foreign Corrupt Practices Act 1977 // URL: https://www.govinfo.gov.
10. International Organization for Standardization // URL: https://www.iso.org